

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Yusufjonov Ravshanbek

Namdu magistr,

Ilmiy raxbar: dosent **Soliev Ibodilloxon**

Anotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlari, kichik biznesni milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali yoritilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor muhitiga tez moslasha olishi, bandlikni ta‘minlash, daromadlarni shakllantirish va shu orqali uning tengsizligini yumshatish hamda o‘rta mulkdorlar qatlamini qaror toptirishdagi afzalliklari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, mulk, investisiya, ishsizlik, rag‘batlantirish, raqobat.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor muhitiga tez moslasha olishi, bandlikni ta‘minlash, daromadlarni shakllantirish va shu orqali uning tengsizligini yumshatish hamda o‘rta mulkdorlar qatlamini qaror toptirishdagi afzalliklari bilan birga xususiy va shaxsiy mulkni ro‘yobga chiqarishda xo‘jalik yuritishning eng samarali shakllaridan hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, xususiy mulk dahlsizligini amalda ta‘minlash bundan buyon ham davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi. Kichik biznes bozor iqtisodiyotida xo‘jalik yuritish shakli sifatida mulkchilikning har qanday shaklini inkor etmaydi. Kichik biznes mulkiy tavsifiga ko‘ra murakkab xo‘jalik yuritish shakli hisoblanib, mulkchilikning mavjud barcha shakllariga asosan tashkil qilinib, faoliyat yuritishi mumkin. Bozor iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlar tajribasi turli mulk shakllariga asoslangan kichik biznes sub’yektlaridan faqat xususiy mulkchilikdagi shunday korxonalar faoliyati birmuncha samarali ekanligini ko‘rsatadi. Aynan shu sababli, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlaribo‘yicha harakatlar strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. [2,4b.]. Xususiy tadbirkorlik kichik biznesdan farq qilib, moliyaviy mablag‘lari va iqtisodiy resurslarini shakllantirilish (tadbirkorning o‘z mulki, meros qoldirilgan, qarz yoki ijaraga olingan mulk va boshqalar) qat’iy xususiy mulkka asoslanadi va xo‘jalik yuritishda shaxsiy tashabbuskorlik ustuvor o‘rin egallaydi. Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida kichik biznesni yanada rivojlantirishni rag‘batlantirish bilan birga, uning tarkibida xususiy mulkka asoslangan sub’yektlar ulushini to‘xtovsiz oshirib borishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Islohotlarimiz natijasida o‘tgan yili 93 mingta yoki 2018 yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko‘p yangi tadbirkorlik sub’yektlari tashkil etildi. Jahon bankining “Biznes yuritish” reytingida 7 pog‘ona ko‘tarilib, biznesni ro‘yxatga olish ko‘rsatkichi bo‘yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8 o‘rinni egalladik va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldik.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiyotda band bo‘lganlardagi ulushi 2018 yilda 2010 yilga qiyosan 74,3 % dan 78,2 % ga, YAIM ni shakllantirishdagi salmog‘i 52,5 % dan 59,4 % ga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi shunday ko‘rsatkichi 18,8 % dan 34,7 % ga ortgan. Bu davrda kichik biznes sub’yektlarilari soni 1,3 barobarga, ularning eksportdagi ulushi 2 martaga yaqin ko‘paygan. Respublika hududlarida kichik biznesning yalpi hududiy mahsulot, tarmoqlar mahsuloti, asosiy kapitalga qo‘yilgan investisiyalar, chakana tovar aylanmasi va xizmat ko‘rsatish hajmi hamda boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushida ham katta ijobiy o‘zgarish ro‘y bergan va ayrim nomutanosibliklar ham kuzatiladi. Jumladan, respublikaning deyarli barcha hududiy sub’yektlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2010 yilga qiyosan 2018 yilda turli xil darajada ortgan bo‘lsa, ayrimlarida bu ko‘rsatkich bir muncha kamaygan. Uning eng yuqori o‘sishi 11,3 % ni (Andijon vil.), eng ko‘p pasayishi esa 8,7 % ni (Sirdaryo vil.) tashkil qilgan. 2018 yilga kelib kichik

biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHM dagi eng yuqori ulushi Jizzax va Namangan (80,9 %) va eng past salmog‘i Navoiy (37,6 %) viloyatiga tegishli bo‘lgan. 2010–2018 yillarda kichik biznesning YAIM dagi salmog‘i yiliga o‘rtacha 0,4 % ga ortgan bo‘lsa, sanoat mahsulotida esa uning ulushi 2010 yilda 19,6 %ni, 2016 yilda 45,0 %, 2018 yilga kelib esa 34,7 foizni tashkil etgan yoki 2016 yilga nisbatan 10,3 % pasayish kuzatilgan. Qurilish sohasida kichik biznesning ulushi 2010 yilda 52,3 % ni, 2016 yilda 67,2 %, 2018 yilda 66,6 %ni tashkil etgan bo‘lsa, xizmatlar soxasida esa mos yillar bo‘yicha 36,6 %; 60,5 % va 55,2 %ni tashkil etmoqda. Birinchi marta tadbirkorlar ga ichki bozorda sotgan mahsuloti bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ining bir qismini qaytarish tartibi joriy etilmoqda. Hozirgacha bu tartib faqat mahsulot eksport qilinganda qo‘llanar edi.

Buning hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida 3,4 trillion so‘m yoki o‘tgan yilga nisbatan 2,5 barobar ko‘p mablag‘ qoladi. Chunonchi, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali: – o‘rta mulkdorlar sinfi shakllanadi; – makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchillik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi; – sog‘loq raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YAIMning miqdor va sifat jihatidan o‘sishi kuzatiladi; – ichki bozor zarur tovar (xizmat)lar bilan to‘yinadi va ularning sifati oshadi; – va pirovardida aholi turmush darajasining o‘shiga erishiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat davlat va jamoat taraqqiyotida, balki xar bir insonning yuksalib borayotgan xayotiy extiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega, ya’ni xizmat ko‘rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish kabi soxalarda ushbu faoliyat yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayni paytda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal o‘shini ta’minlash, xususiy mulkni ximoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi ba’zi ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish, respublikamizda investisiya va ishbilarmonlik muhitini sifat jixatidan yangibosqichga ko‘tarish orqali xalqaro me’yorlarga to‘liq javob berishini ta’minlashda o‘z aksini topadi.

Adabiyotlar:

1. Soliyev, II (2020). Methods for Selecting Innovative Projects for Implementation. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 23 (2), 263-266.
2. Soliev, I. I., & Sirojiddinov, K. (2020). VOPROSY PODDERJANIYA KONKURENTOSSPOSOBNOSTI AGRARNYX PRIZVODITELEY. Economics and Socialism, (6-2), 317-322.
3. Soliev, I. I., & Sirojiddinov, K. (2020). NEKOTORYE ASPEKTY ORGANIZATSII MARKETINGA PLODOOVOshchNOY PRODUKTSII NA SELSKOHOZYAYSTVENNYYX PREDPRIYATIYAX. Economics and Socialism, (6-2), 312-316.
4. Abduazizova , V. _ V. , & Soliev , I. I. _ (2020). METHODS OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS. Economics and Socialism, (6), 3-6.
5. Soliev, I. I. (2020). BASIC FACTORS OF DEVELOPMENT INNOVATIVE DEYATELNOSTI. Economics and Society, (4), 884-887.
6. Soliyev , I. _ (2020). Formation of innovative activities in the educational system: technological approach. Bulletin of pedagogy: science and practice, (51), 150-151.
7. Soliev, II (2019). INNOVATIVE STRATEGIES IN THE ECONOMY AND THEIR PRACTICAL SIGNIFICANCE. Economics and Socialism, (6), 68-69.
8. Ismatullaevich, SI, & Yakubovich, YA (2019). The role of innovative activity in the SocioEconomic development of society. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 9 (4), 93-98.
9. Soliyev, II, & Shokirov, A. (2018). THE MAIN FEATURES OF INNOVATION RISKS. Theory i practice of modern science, (1), 773-775.
10. SOLIEV, I., & DADAMIRZAEV, M. (2017). Corporate governance as the way of investment attraction. Sovremennyye nauchnyye issledovaniya i razrabotki, (4), 11-13.

11. Soliev, I. I. (2020). BASIC FACTORS OF DEVELOPMENT INNOVATIVE DEYATELNOSTI. *Economics and Society*, (4), 884-887.
12. SOLIEV, I., JURAEV, X., & SIROJIDDINOV, K. (2017). Osobennosti innovatsionnoy napravlenosti ekonomicheskogo razvitiya v usloviyax regiona. *Sovremennyye nauchnyye issledovaniya i razrabotki*, (4), 275-277.
13. Soliev, I. I., & Sirojiddinov, K. I. (2015). Blagopriyatnyy investment climate important factor macroeconomic development. *Young uchenyy*, (17), 461-463.
14. Sarfraz , M. , Ran , J. , & Soliev , I. (2014). Restructuring and Performance Evaluation of Chinese LocalGovernment: Problem, Reason, and Options of Change. *Journal of Management Policies and Practices*, 2 (1), 1-15.
15. Ran, J., Soliev, I., & Sarfraz, M. (2014). An Analysis on the “Going out Policy” of Chinese-founded Enterprises and Cross-culture Management